

YOZUV TARIXI

Andijon davlat chet tillari instituti

Mamashokirova Bibioysa

Ilmiy rahbar: Xomidova Malohat

E-mail: bmamashokirova@gmail.com

Annotatsiya: Insoniyat tarixida yuzlab, balki, minglab yozuv turlari yaratilgan, ularning har biri o'z tarixiga ega hisoblanadi, ular bugungi kunda insoniyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi .

Kalit so'zlar: tarix , yozuv, muhim, insoniyat, tur, hayot .

Annotation: In the history of humanity, hundreds, if not thousands, of writing types have been created, each of them has its own history, and they are of great importance in human life today .

Key words: history, writing, importance, humanity, species, life .

Аннотация: В истории человечества созданы сотни, если не тысячи видов письменности, каждый из них имеет свою историю, и они имеют большое значение в жизни человека сегодня.

Ключевые слова: история, письменность, важное, человечество, тип, жизнь.

Yozuvning paydo bo'lishi insoniyat tarixidagi eng muhim yutuqlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Bilamizki, qadimda yozuvning turli xil ko'rinishlari mavjud bo'lgan shunday bo'lsa ham, insoniyat hayotida yozuv paydo bo'lgandan boshlab uning yashash tarzi, dunyoqarashi, odamlar bilan muloqoti yaxshilana boshlagan va yana shu bilan birga uning tarixi, madaniyati, urf-odati shakllana

boshlagan, bundn ko'rinib turibdiki,yozuvning qanchalik ahamiyatga ega ekanligini.Yozuv orqali biz ming yillik meroslar haqida yozib qoldirishimiz mumkin. Yozuvdan ilk bor miloddan avvalgi 4-ming yillikda foydalanishgan.Ilk yozuv paydo bo'lishiga dastlab hisob-kitob,ya'ni savdo-sotiq va xo'jalik yuritish ehtiyojlari asos bo'lgan. Tadqiqotlardan ma'lumki , yozuvning dastlabki ko'rinishlari ramziy ifodalar tarzida yuzaga kelgan. Yozuvning bir nechta turlari mavjud , piktografik , ideografik , logografik , iyeroglifik , fonografik kabi.Dastlabki , yozuv turi piktografik , ushbu yozuv turi eng qadimgi yozuv turlaridan hisoblandi u eramizdan 5 ming yil ilgari paydo bo'lgan.Bu yozuvning ko'rinishi rasmlardan tashkil topgan,(lotincha pictum “rasm”, pingo “chizaman”)degan ma'nolarni bildiradi .Inson qadimda o'z fikrini rasmlar ya'ni (hayvon , qayiq) kabi sxematik tarzda tushuntirmoqchi bo'lgan. Tarixdan bilamiz , ibtidoiy to'da davrida insonlar huddi shu yozuv turidan foydalanishgan,misol uchun , agarda ular ov qilishga ketishayotgani haqida xabar bermoqchi bo'lsa , ular g'or devorlariga yoki toshlarga hayvon sur'atlarini o'yib yozib qoldirishgan . Piktografiya yozuv madaniyating ilk ko'rinishi sifatida tarix zarvaraqlarida muhrlanib qolgan.Biroq hozirgi kunda ham axborot berish funksiyasi sifatida foydalanilmoqda. Keyingi yozuv turi ideografik, piktografik yozuvning takomillashib borishi natijasida paydo bo'lgan (grekcha idea “tushuncha”, grafo “yozaman”). Ideografik yozuvdan eramizdan avvalgi 3-ming yillikka borib taqaladi. Bu yozuvdan asosan kohinlar foydalanishgan va faqatgina ular tushuna olishgan . Bu yozuv turida matnlar yozilmagan balki suyak va boshqa materiallarga rasmlar o'yib bitilgan.Undan so'ng qadimgi misr yozuvi (iyeroglif) yozuv turi. Bu boshqa yozuv turlaridan farqi unda belgilar mavjud,ya'ni 1 so'z 1 ta tovushni bildiradi.1822-yili 14-sentabrda Fransiyalik matematik olim misr yozuvini o'qish uchun o'ziga xos usul yaratadi shuning uchun ham uni misrshunos va yana qadimgi misr grammatikasi asoschisi hamdir.Keyingi yozuv turi fonografik,(yunoncha phane “tovush”, graphe “yozaman”), va yana tovush yozuvlari degan ma'nolarni bildiradi. Odamlar ko'p vaqt mobaynida izlanishlar natijasida o'zaro aloqalarni yaxshilash , xalqni ma'naviylashtirish, madaniyatni,urf-odatni avloddan-avlodga o'tkazish uchun fonografik yozuvni shakllantirishgan.Fonografik yozuv

turida ma'lumot olish va almashish, ta'lim olish va yana shu bilan birga madaniyatni saqlashda foydalanilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir yozuv turining o'ziga xos ahamiyati mavjud, qadimda ham, hozirgi kunda ham. Yozuv qadimda yoki bugungi kunda sodir bo'lgan nimaiki bo'lsa, ularni avloddan-avlodga qoldirishga yordam beruvchi asosiy qurol hamdir shuning uchun, biz uni madaniyatni saqlovchi, urf-odatni ushlab qoluvchi tirgak deyolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zulxumor Xolmanova "Tilshunoslik nazariyasi"-Toshkent 2020
2. uz.wikipedia.org